



JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

INDEX  COPERNICUS
INTERNATIONAL

OpenAIRE | EXPLORE

 Google Scholar



ISSN


INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
UNITED STATES



Academic
Resource
Index
ResearchBib

zenodo

VOLUME | 4 ISSUE | 8 | JANUARY | 2026



JCWS

BARQAROR RIVOJLANISHDA “YASHIL” IQTISODIYOTNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

¹ *Raximova Go‘zalbegim Murodovna*, ² *Mamasobirov Nasibillo Soyibjon o‘g‘li*

¹ Diplomat University “Iqtisodiyot va raqqli texnologiyalar” kafedrası dotsent. (DSc)

² Diplomat University WE_01_24 D guruh talabasi

e-mail: nasibillomamasobirov272@gmail.com



Accepted Date:

January 25, 2026,

Published Date:

January 31, 2026

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under

a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

ANNOTATION:

Mazkur maqolada “yashil” iqtisodiyotning ilmiy nazariy asoslari yoritilgan, “yashil” iqtisodiyotda mavjud innovatsiyalar keltirilgan, “yashil” iqtisodiyotda innovasion boshqaruv modellari tadqiq etilgan, davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi hamkorlik jihatlari ochib berilgan, shuningdek, dunyoda “yashil” iqtisodiyotga investisiya qilish samaradorligi baholangan hamda O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish asoslari keltirilgan va “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bayon etilgan.

KEYWORDS:

“yashil” iqtisodiyot, “yashil” investisiyalash, energiya tejamkorligi, “yashil” energiya manbalari, CO₂ chiqindilari.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi hamda tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish natijasida ekologik muammolar global tus oldi. Iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va chiqindilar hajmining ortib borishi insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini saqlab qolish maqsadida "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi shakllandi va bugungi kunda barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasi ilk bor xalqaro miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni yaratishga qaratilgan yondashuv sifatida rivojlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ushbu model inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladigan iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi. Mazkur yondashuv iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhit muhofazasi bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, an'anaviy iqtisodiyotdan ekologik jihatdan mas'uliyatli va resurs tejankor iqtisodiyotga o'tishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlari o'z iqtisodiy siyosatida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylanib bormoqda. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

1-jadval

"Yashil" iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari va ularning barqaror rivojlanishga ta'siri.

Yo'nalishlar	Asosiy maqsad	Kutilayotgan natija
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	Quyosh, shamol va gidroenergiyadan foydalanish	Atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar kamayadi
Energiya samaradorligi	Energiya sarfini qisqartirish	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi
Yashil transport	Elektr transport va ekologik transport tizimlari	Havo ifloslanishi kamayadi
Chiqindilarni qayta ishlash	Chiqindilar hajmini kamaytirish	Resurslardan takroriy foydalanish imkoniyati oshadi
Suv resurslarini boshqarish	Suvdan oqilona foydalanish	Suv tanqisligining oldi olinadi
Yashil qishloq xo'jaligi	Ekologik toza mahsulot yetishtirish	Tuproq unumdorligi saqlanadi
Yashil moliyalashtirish	Ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Investitsiyalar hajmi ortadi

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, "yashil" iqtisodiyot ushbu konsepsiyaning amaliy mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini saqlab qolishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "yashil" iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ham muhim vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda "yashil" iqtisodiyotni

rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini samarali boshqarish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Xususan, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, "yashil" transport tizimini shakllantirish va chiqindilarni boshqarish sohasidagi chora-tadbirlar mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rin egallaydi.

2-jadval

Barqaror rivojlanishning uchta asosiy komponenti.

Iqtisodiy omillar	Ijtimoiy omillar	Ekologik omillar
Investitsiyalarni oshirish	Bandlikni ta'minlash	Atrof-muhitni muhofaza qilish
Innovatsiyalarni rivojlantirish	Aholi turmush sifatini yaxshilash	Resurslardan oqilona foydalanish
Raqobatbardoshlikni oshirish	Ijtimoiy tenglik	Iqlim o'zgarishiga moslashish
Ishlab chiqarish samaradorligi	Kambag'allikni qisqartirish	Biologik xilma-xillikni saqlash

"Yashil" iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari qatoriga qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza ishlab chiqarishni tashkil etish, yashil qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv va yer resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport infratuzilmasini yaratish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish kiradi. Ushbu yo'nalishlar iqtisodiy o'sishning ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashuvini ta'minlab,

jamiyatning uzoq muddatli farovonligiga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, global ekologik muammolarning kuchayib borishi sharoitida iqtisodiy rivojlanishning yangi, ekologik xavfsiz modelini shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlar va ekologik muvozanatning buzilishi "yashil" iqtisodiyotning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli barqaror rivojlanishda "yashil"

iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlarini o'rganish, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligini tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda Yevropaning ko'plab mamlakatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy va boshqa davlatlar yashil iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uglerod izini kamaytirish asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy modeldir. Bu model, iqtisodiyotning ekologik barqarorligini oshirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy adolatni ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Yashil iqtisodiyot innovasion boshqaruvi esa yangi texnologiyalar, metodlar va amaliyotlarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotni ekologik barqarorlikka erishish yo'lida yangilashni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga samarali o'tish uchun uning ilmiy konsepsiyani yaratish talab etiladi, bu esa "yashil iqtisodiyot"ning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish muhim sanaladi.

Yashil iqtisodiyotning ilmiy-nazariy asoslari bir qancha fundamental tushunchalarga tayanadi, ularning har biri atrof-muhitni himoya qilish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha yangi yondashuvlarni shakllantiradi [7]:

Barqaror rivojlanish: ushbu konsepsiya iqtisodiy o'sishni ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror shaklda ta'minlashni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish o'zining asosiy tamoyillaridan biri sifatida resurslarning kelajak avlodlar uchun ham muhofaza qilishni ko'zda tutadi. Bu esa an'anaviy iqtisodiy modeldan farq

qiladi, chunki unda tabiiy resurslar cheksiz foydalanish ob'yekti sifatida qaraladi.

Sirkulyar iqtisodiyot (circular economy): bu modelda chiqindilarni minimal darajaga tushirish, resurslarni qayta ishlash va ularni yangi mahsulotlar yaratishda ishlatish asosiy yo'nalish hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotning sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayoni, mahsulotlar va xom ashyo tarmoqlarida samarali resurslarni boshqarishga yo'naltirilgan.

Ekologik samaradorlik (yeco-efficiency): ekologik samaradorlik iqtisodiy natijalarni optimal tarzda erishish, ammo kamroq ekologik zararga olib kelish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Yashil iqtisodiyotning bu tamoyili ekologik barqarorlikni va iqtisodiy samaradorlikni bir vaqtning o'zida oshirishni ko'zda tutadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yashil iqtisodiyotda innovatsiyalar iqtisodiyotni ekologik jihatdan barqaror qilishning asosiy vositasidir. Innovatsiyalar yangi texnologiyalar, mahsulotlar va uslublarni o'z ichiga oladi, ular atrof-muhitni muhofaza qilishga, tabiiy resurslarni samarali ishlatishga va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotdagi asosiy innovasion yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Yashil texnologiyalar: bu ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, suv energiyasi), chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, suv va havoni tozalash texnologiyalari.

Ekoinnovatsiyalar: ekoinnovatsiyalar ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni yaratishni nazarda tutadi. Bu innovatsiyalar ekologik zararni kamaytirishga, tabiiy resurslardan

oqilona foydalanishga va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga yo'naltirilgan.

Boshqaruv innovatsiyalari: bular innovation boshqaruv yondashuvlarini o'z ichiga oladi, ular resurslarni tejash, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun yangi boshqaruv usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Innovation boshqaruv yashil iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Innovation boshqaruv modellari ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bunday modellarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Barqaror biznes modeli: ushbu modelda yashil texnologiyalar va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqishga asoslangan biznes tuzilmalari yaratiladi. Bunda kompaniyalar, o'z faoliyatida ekologik xavflarni kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etadilar.

Ekologik tadbirkorlik: Bu model yangi ekologik bizneslar va startaplarni yaratishga asoslangan bo'lib, ular ekologik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan. Ekologik tadbirkorlar qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish va barqaror qishloq xo'jaligi kabi sohalarda faoliyat yuritadilar.

Gibrid strategiyalar: bu strategiyalar an'anaviy va yashil boshqaruv uslublarini birlashtirib, iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni bir vaqtning o'zida ta'minlashni ko'zda tutadi. Gibrid strategiyalar orqali an'anaviy texnologiyalarni ekologik talablarga moslashtirish mumkin.


Yashil iqtisodiyotdagi innovatsiyalarni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektorlarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish: davlat, yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun soliqlarni imtiyozli qilish, subsidiyalar va grantlar ajratish, ekologik standartlarni joriy etish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirishi kerak.

Korxonalarining ijtimoiy mas'uliyati: bir qator kompaniyalar ijtimoiy mas'uliyatni bajarish uchun ekologik dasturlarni amalga oshiradilar. Bu dasturlar resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va barqaror energiya manbalaridan foydalanishga qaratilgan.


Umuman olganda, yashil iqtisodiyot va uning innovation boshqaruvi — bu barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi zaruriy elementdir. Yashil iqtisodiyotning ilmiy-nazariy asoslari barqaror rivojlanish, sirkulyar iqtisodiyot va ekologik samaradorligi tamoyillariga asoslanadi. Innovatsiyalar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi va yashil texnologiyalar, ekoinnovatsiyalar hamda boshqaruv innovatsiyalarini o'z ichiga oladi. Davlat va xususiy sektorlarning hamkorligi orqali yashil iqtisodiyotning innovation boshqaruvi samarali tarzda rivojlanishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatib turibdiki, "yashil iqtisodiyot"ga investisiyalar oddiy rivojlanishga yo'naltirilgan investisiyalardan ko'ra samaraliroq hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. “Yashil” investitsiyalash ssenariyasi va oddiy rivojlanish ssenariyasi bo‘yicha YAIMning yillik o‘sish sur‘atlari.

Quyidagi 2-rasmda an’anaviy rivojlanish ssenariysiga investitsiya qilish bilan solishtirganda “yashil” iqtisodiyotga YAIMning 2 foizini investitsiya qilish orqali energiya ishlab chiqarish bilan bog‘liq CO₂ chiqindilarini kamayishi tendensiyasi va prognozi keltirilgan.



2-rasm. Yashil iqtisodiyotga YAIMning 2 foizini investitsiya qilish orqali energiya ishlab chiqarish bilan bog‘liq CO₂ chiqindilarini kamayishi (ularni an’anaviy rivojlanish ssenariysiga investitsiya qilish bilan solishtirganda) [7]

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bunga mamlakatimizda “2019-

2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilinishi [3] hamda

2025 yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi [4] bunga yaqqol misol bo’la oladi. Shuningdek, respublikamiz yaqin va uzoq istiqbolini belgilab beruvchi hujjatlarda [1, 2] ham “yashil iqtisodiyot”ga izchillik bilan o’tish bo’yicha keng ko’lamli chora-tadbirlar belgilangan. Umuman olganda, respublikamizda davlat darajasida ekologik siyosat, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o’tish kabi qadamlar qo’yilmoqda.

Yashil iqtisodiyot global miqyosda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim vosita bo’lib, kelgusida bu boradagi ishlarining yanada kuchayishi kutilmoqda.

O’zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari jadal sur’atlarda ro’yobga chiqmoqda. Bu tendensiyalar mamlakatning barqaror rivojlanishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va tabiiy resurslarni oqilona foydalanishga qaratilgan ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda O’zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo’yicha bir qator muhim qadamlar qo’yilgan.

Suv resurslaridan samarali foydalanish: O’zbekistonda suvning yetishmasligi muammosi mavjud, shuning uchun suv resurslarini boshqarishda samaradorlik muhim ahamiyatga ega. Davlat irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tejamkor texnologiyalarni qishloq xo’jaligiga tadbiq etish va suvni qayta ishlash va qayta foydalanish texnologiyalarini joriy etish borasida qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

Yashil energiya manbalariga qiziqishning ortishi: O’zbekistonda quyosh va shamol energiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat quyosh energiyasi potensialiga ega bo’lib, ushbu sohada loyihalarni amalga oshirishga ko’p

e’tibor qaratmoqda. Bu energiya manbalari uglerodli manbalariga bo’lgan ishonchni kamaytirish va parnik gazlari chiqindilarini qisqartirishga yordam beradi.

Energiya tejamkorligi: O’zbekiston iqtisodiyotida energiya tejamkorligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Innovasion texnologiyalarni ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko’rsatishda joriy etish, energiya sarfini kamaytirish va atrof-muhitga bo’lgan ta’sirni minimallashtirish imkonini yaratadi.

Uglerod chiqindilarini qisqartirish: O’zbekiston global iqlim o’zgarishlariga javoban parnik gazlari chiqindilarini qisqartirishga intilayotgan davlatlar qatorida turibdi. Parij kelishuvi kabi xalqaro bitimlarda ishtirok etish va uglerod chiqindilarini qisqartirish bo’yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Ekologik qishloq xo’jaligi: O’zbekistonda organik qishloq xo’jaligi rivojlantirilmoqda. Bu kimyo o’g’itlari va pestisidlardan foydalanishni kamaytirishga, tuproqni muhofaza qilishga va iqlim o’zgarishlariga qarshi turishga yordam beradi.

Yashil shaharlar va ekoturizm: O’zbekistonda ekologik toza va barqaror shaharlarni yaratishga, shuningdek ekoturizmni rivojlantirishga qiziqish ortmoqda. Bu tabiatni saqlashga va yangi ish o’rinlarini yaratishga yordam beradi.

Qonunchilik va institusional islohotlar: Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda kerakli qonunchilik bazasini yaratish va muvofiq institusional mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O’zbekiston, yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish sohasida ish olib borayotgan tadbirkorlarni qo’llab-quvvatlash uchun turli rag’batlantirish choralari ko’rmoqda.

Shuningdek, O’zbekiston yashil iqtisodiyotga yo’nalgan qadamlarni

tezkorlik bilan amalga oshirib, barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillarini hayotga tadbiq etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4477-son Qarori. URL: <https://lex.uz/docs/4539502>
4. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan majlisidagi nutqi. 2024 yil, 20 noyabr. URL: https://uza.uz/ru/posts/prezidentimiz-2025-yilni-yurtimizda-atrof-muhitni-asrash-va-yashil-iqtisodiyot-yili-deb-elon-qilishni-taklif-qildi_659175
5. Yashil pul-kredit siyosati yuritishning istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. T., 2024 – 33 b. URL: <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/analysis/1754814/>
6. Navstrechu «zelenoy» ekonomike: puti k ustoychivomu razvitiyu i iskoreneniyu bednosti obobshchayushiy doklad dlya predstaviteley vlastnykh. - YUNEP,2011.URL:https://www.uncclearn.org/wpcontent/uploads/library/unep119_rus_0.pdf
7. Saitov S., Asrayev S. MECHANISMS FOR INCREASING EMPLOYMENT THROUGH THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 335-339.
8. Saitov S. et al. ZAMONAVIY FILOLOGIYA FANLARIDAGI DOLZARB MASALALAR //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 419-422.
9. Eshboyeva M., Eshboyev T., Saitov S. GREEN ECONOMY AS THE FOUNDATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: GLOBAL PERSPECTIVES AND NATIONAL STRATEGIES //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 235-238.
10. Saitov S. et al. O ‘ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG ‘BATLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – T. 3. – №. 33. – C. 728-730.
11. Saitov S. et al. SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – T. 3. – №. 33. – C. 731-733.
12. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 21-24.
13. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.